



NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

M.R.Qodirxonov
A.M.Tursunpulatov

Targ'ibot va ma'lumot uchun
Muddat: 25 Fevral 2025

№20-06/1173
15 Oktabr 2024

B.E.Xusanov
Ректор





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko’chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



2024-yil 12 – oktyabr
03/12-4/1-8807-son

**Oliy ta’lim muassasalari
rektorlari (direktorlari)ga**

YUNESKO ishlari bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasining joriy yil 30-sentyabrdagi 341/24-sonli xatiga muvofiq quyidagilarni ma’lum qilamiz:

Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) sohasida faoliyat olib borayotgan yosh olim va olimalarni qo’llab-quvvatlash uchun joriy etilgan Saudiya Arabistoni va YUNESKO tashkilotining **YUNESKO/Al Fozan xalqaro mukofoti** uchun tanlov e’lon qilingan.

Ushbu xalqaro mukofot har ikki yilda bir marotaba e’lon qilinib, besh mintaqadan tanlab olingan 5 nafar olim va olimalarga taqdim etiladi.

Mukofot miqdori 50,000 AQSH dollarini tashkil etadi.

Mazkur mukofotga tavsiya etilgan nomzodlar xalqaro hay’at tavsiyasi asosida YUNESKO Bosh direktori tomonidan tanlab olinadi.

YUNESKO/Al Fozan mukofoti bilan bog’liq bo’lgan batafsil ma’lumot bilan quyidagi veb-sahifa orqali tanishish mumkin:

<https://www.unesco.org/en/prizes/al-fozan>

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlar quyida keltirilgan havola orqali ro’yxatdan o’tishlari hamda ariza varaqalarini ingliz yoki fransuz tillarida to’ldirishlari kerak:

<https://apply.unescoalfozanprize.org/login>

Hujjat topshirish muddati: **2024-yil 14-sentyabrdan 2025-yil 15-aprel kunigacha.**

Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlarga qo’yiladigan talablar YUNESKO xatida keltirilgan (ilova qilinmoqda).

Shuningdek, olima ayollar nomzodlari tavsiya etilishi YUNESKO tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ma’lum qilgan.

Yuqorida keltirilgan tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlar hujjatlari **2025-yil 25-mart kuniga qadar** YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasiga taqdim etilishi kerak.

Ilova: b.

Vazir o‘rinbosari



S. Buzrukxonov